

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY YETIMLIK HOLATINING IMPIRIK TAHLILI VA UNI OLDINI OLISHNING OPTIMAL YO‘LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8003377>

Mingbayeva Bashorat Jalgashboevna

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy ish kafedrası 2-bosqich magistranti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ijtimoiy yetimlikni keltirib chiqruvchi omillar, sabablar , hamda buning oqibatida jamiyatda yuzaga keladigan muammolar atroflicha tasniflangan, empirik tahlil qilingan. Bugungi kunda ijtimoiy yetimlik muammolarini bartaraf etishga qaratilgan chora – tadbirlar majmui hamda uni oldini olishning optimal yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Ijtimoiy yetimlik hayotimizda qadimdan davom etib kelayotgan sotsial fenomen sifatida dolzarb muammodir, shu boisdan mavzu har tomonlama o‘rganildi.

Kalit so‘zlar.

yetimlik, ijtimoiy yetimlik, ota – ona , qarovsizlik, shavqatsizlik, vasiylik, homiylik, mehribonlik uyi, bolalar shaxarchasi, ijtimoiy yordam, ko‘mak, psixologik zarba, e‘tiborsizlik, kichik oila.

Ijtimoiy yetimlik hayotimizda qadimdan davom etib kelayotgan sotsial fenomendir. Ijtimoiy yetimlik asosan oilaviy va insoniy qadriyatlar inqirozi fonida paydo bo‘ladi. Strukturaviy-funksional yondashuvning aspekti ijtimoiy yetimlikni zamonaviy oilaning institutsional disfunktsiyalarining umumiyligi mahsuli sifatida talqin etish mumkin. Bunday disfunktsiyalar genetik jihatdan bir qator omillar bilan aniqlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy yetimlik fenomeni o‘z navbatida shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi. Bu salbiy oqibatlar asosan bolaning ijtimoiylashuv jarayonida namoyon bo‘ladi, ya‘ni: ijtimoiy yetimlik buzg‘unchi ijtimoiylashuvning shart-sharoitini yaratadi, bu esa kelajakda shaxsning jamiyatga xulq atvor og‘ishi ya‘ni deviant xulq-atvorining shakllanishiga va hatto jinoiy xatti-harakatlarini sodir etishga olib keladi[1].

Ijtimoiy yetimlik bu – ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar, shu jumladan turli sabablarga ko‘ra ota-onasi ularni tashlab ketgan yoki ota-onalik huquqidan mahrum bo‘lgan va to‘liq davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan bolalardir [2].

Tug'ilganidan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning maxsus ijtimoiy-demografik guruhi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, psixologik, tibbiy sabablarga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan (tirik ota-onasi bo'lgan etimlar)[3].

Ijtimoiy yetimlik ta'rifi shuni ko'rsatadiki, nihoyat, har bir oila, har bir ota-ona o'z burchini bajarishi uchun yetarli moddiy, moliyaviy va umumiy ijtimoiy sharoitlarning yo'ligida, o'z ota-onalik mas'uliyat, mehr-muhabbat, rahm-shafqat va g'am chekish tuyg'ularining defitsiti sharoitida farzandlarni dunyoga keltirib so'ngra turli sabablarga ko'ra o'z farzandlaridan voz kechishidir. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash va qo'llab-quvvatlashning bir necha tuzilmalari yo'lga qo'yilgan. 13 ta Bolalar uyida 560 nafar, 16 ta Mehribonlik uyi va 4 ta Bolalar shaharchasida 1 ming 823 nafar, 86 ta maxsus maktab-internatda 21 ming nafar o'g'il-qizlar tarbiyalanmoqda. Bundan tashqari, 79 ming nafar bolalar homiylik, vasiylik va oila patronati qaramog'iga olingan[4].

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-iyul kuni nogironligi bo'lgan, ota-ona qaramog'idan mahrum va yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kengaytirish hamda ijtimoiy nafaqalarni takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida "Ota-ona mehridan mahrum va nogironligi bor bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalash barchamizdan jiddiy e'tibor va amaliy harakatlarni talab qiladi. Birorta bola "men yetim yoki nogironman" deb o'ksinmasligi, davlatimiz va jamiyatimizning mehridan chetda qolmasligi kerak. Ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, barcha sharoitlarni yaratib berish nafaqat vazifa, balki muqaddas burchdir. Masalaga shu jihatdan yondashsak, ishimizda albatta natija bo'ladi. Farzandlarimizga qilgan har bir yaxshiligimiz o'n yaxshilik bo'lib qaytadi", - deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz. Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy yetimlik kabi hodisaning sabablari va oqibatlarini tavsiflash va tahlil qilishning eng keng tarqalgan sotsiologik yo'nalishlari[5]. A.Osipovning so'zlariga ko'ra, bu yo'nalishlar doirasida ijtimoiy yetimlikning sabablari o'zaro bog'liq, birinchidan, jamiyat, ijtimoiy tizimlar, normativ va ijtimoiy tuzum kabi makrosotsial kategoriyalar sferasi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ijtimoiy yetimlikning jamoatchilik modeli bilan ham munosabat mavjud. Unga ko'ra subyektiv ongli ijtimoiy muammo, talqin va individual turmush tarzi kabi tushunchalar o'z oldiga[6].

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda ikki tushuncha keng qo'llanilmoqda: yetim (ikkalasi ham yoki yagona otasi-onasi yo'q vafot etgan) va ijtimoiy yetimlik (ikkalasi ham yoki yagona otasi-onasining qaramog'idan mahrum). Ko'rinib

turibdiki, yetimlik atamasida asosiy e'tibor yetim so'zi bilan bog'liq bo'lib, bu ota-onasi vafot etgan yoki ularning qaramog'idan ma'lum bo'lgan bolalarning jamiyatdagi mavjudligini anglatadi. Biroq, o'zbek jamiyatining tarixiy rivojlanishi sharoitida yetimlik bir yoki ikkala ota-onadan mahrum bo'lish kabi emas, balki bolaning yigirmanchi asrning 90 yillarida ijtimoiy ish mutaxassislari "ijtimoiy yetimlik" atamasi bilan aniqlay boshlagan jamoaning ta'sir doirasidan tashqarida bo'lishi kabi qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand viloyat hokimining 2022-yil 1-fevral kungi qarori bilan 1-sonli Mehribonlik uyining faoliyati butunlay tugatilib va ushbu muassasada tarbiyalangan bolalar 6 ta oilaviy bolalar uyiga 36 nafar o'g'il qizlar tarbiyalash uchun berilgan[7]. Bundan tashqari viloyat bolalar uyidan 17 nafar, SOS O'zbekiston bolalar uyushmasi Samarqand filialidan 11 nafar bola oilasi bag'riga qaytarilgan bolalar sotsiologik tadqiqotda ishtirok etdilar.

Ushbu 64 nafar bolalarning sotsial qiyofasini o'rganish maqsadida ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan savolnomalar tuzildi: Jumladan, 1) ijtimoiy yordam masalalarini o'rganish va bolalikka ko'mak ko'rsatish; 2) bolalar muhitida ijtimoiy anomaliyalarni o'rganish. Shundan kelib chiqib, muallif tomonidan 2022-yilning mart-aprel oylarida Samarqand shahri, Samarqand tumani va Toyloq tumanida "Ijtimoiy yetim bolalarning ijtimoiy qiyofasi (sotsial portretini) belgilash" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

Sotsiologik so'rov Samarqand shahri, Samarqand tumani va Toyloq tumanidagi oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilaridan N=64 nafar o'smir respondentlar so'raldi, jumladan, o'g'il bolalar - 36 nafar (56,0%) va qizlar - 28 nafar (44,0%). So'rov o'tkazilgan yoshlarning yosh tuzilmasi: 14-18 yosh bo'lib. 14-16 yoshlilar 48 nafar (75,0%) va 17-18 yoshlilar 16 nafar (25,0%) ni tashkil etgan. Taxmin qilish mumkinki, oilaviy qiyinchiliklarning turli ko'rinishlari O'zbekistonning boshqa hududlariga ham tegishlidir.

Respondentlarga "Sizni bu yerga kelib qolishingizga asosiy sabab nimada deb bilasiz? deb savol berilganda ularning ochiq javoblari quyidagicha bo'ldi. Respondentlarni deyarli 50%i o'zini davlatimizdan boshqa hech kimga kerak emas deb hisoblaydilar, ularning 30%i zo'ravonlikka uchraganliklari uchun shu holatga tushganlar, 20% respondentlarning ota-onasi ozodlikdan mahrum bo'lganligi yoki xorijga ishlashga ketganligi sababli ijtimoiy yetim bo'lib qolgan deb hisoblaydilar. Respondentlarning deyarli barchasi ota-onasining ularga nisbatan qiziqishi yuq

deb hisoblaydilar. Respondentlarning 10%i ota-onasi alkogolik yoki giyohvand bo'lib qolganligi sababli shu holatga tushib qolgan deb hisoblaydilar. Oilaviy bolalar uylarining 50% o'z ota-onalarini ota-ona bo'lishga tayyor emaslar deb xulosaga kelganlar.

Respondentlar bergan javoblarini umumlashtirib guruhlanganda oilaviy bolalar uyidagi bolalarning deyarli barchasi o'zlarini shu holatga kelishiga ota-onalari sababchi ekanligi bildirganlar. Ijtimoiy yetimlikning keltirib chiqaradigan sabablardan biri bu oilaviy qiyinchiliklarning replikativ xususiyatidir. Oila a'zolarining to'liq bo'lmasligi va oila tarkibining to'liq bo'lmasligi ijtimoiy yetimlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biridir[8]. Oilalardagi bolalar soni va ularning ota-onalari avlodida ota-onalar tarkibining to'liqligi nuqtayi nazaridan nosog'lom oilalarning tuzilishi ahamiyatlidir. Shu sababli Respondentlarga "Sizni o'z oilangizda bo'lgan vaqtingizda oila a'zolaringizni tarkibi qanday bo'lgan?" deb savol berilganda, ularning 20 nafari oilasining tarkibi to'liq bo'lganligini, 34 nafari ota-onasi ajrashganliklarini, 42 nafari buvasi yoki buvisi bo'lmaganliklarini, 42 nafari aka-uka va opa-singillari bo'lmaganliklari ya'ni yolg'iz farzand bo'lganliklarini bildirganlar. Shundan kelib chiqib. Aytish mumkinki, ijtimoiy yetimlikka tushib qolish ehtimoli ko'proq to'liq bo'lmagan oilalar ya'ni ajrashgan oilalar va yolg'iz farzandlar tushib ehtimoli ko'proq. Ammo, respondentlarning ayrim nafari barcha oila a'zolaring to'liq bo'lganliklarini ham bildirganlar[9].

Respondentlarga "Sizni bu yerga kelib qolishingizga asosiy sabab nimada deb bilasiz? Deb savol berilganda ularning ochiq javoblari quyidagicha bo'ldi. Respondentlarni deyarli 90%i o'zini davlatimizdan boshqa hech kimga kerak emas deb hisoblaydilar, ularning 30%i zo'ravonlikka uchraganliklari uchun shu holatga tushganlar, 54% respondentlarning ota-onasi ozodlikdan mahrum bo'lganligi yoki xorijga ishlashga ketganligi sababli ijtimoiy yetim bo'lib qolgan deb hisoblaydilar.

Tadqiqot natijalari bo'yicha shunday xulosa qilinadi. Jumladan, hozirgi vaqtda ijtimoiy yetimlik fenomeni Samarqand aholisi tomonidan salbiy stereotiplar prizmasi sifatida qabul qilinmoqda. Ijtimoiy yetim bolalarning har taraflama rivojlanishi uchun yetarlicha sharoitlar bor va umuman ko'chada qarovsiz qolib ketgan bolalar bizning jamiyatimizda yuq. Oilaviy bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalarning emotsional holati mu'tadil va unga biror bir xavf tug'diradigan omillar yo'q. Oilaviy bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar o'z atrofidagi bolalar bilan va ularni qabul qilgan ota-onalar bilan munosabati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ularning oila sharoitida tarbiya olishlari va maktabda o'qishlarida biror cheklov va stigma holatlari mavjud emas. Surov natijalaridan shu narsa aniq bo'ldiki, so'rovnomada ishtirok etgan o'smirlarning shaxsiy "Men"i shakllangan va ular o'z mustaqil

fikrlariga ega. Ularning intellektual holati orqada qolmagan va zamon bilan hamnafas sifatida rivojlanib bormoqda.

Agar oilada tarbiyalangan o‘smirlar uchun eng ahamiyatlisi o‘z xatti-harakatlarining normativga nisbatan negativistik qarshilari, kattalar talablariga o‘z afzalliklari kabi jihatlar bo‘lsa, u holda oilaviy bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar uchun vaziyatga mohirona moslashish qobiliyati eng katta ahamiyatga ega. Ya’ni, agar o‘z “Men”ning da’vosi, o‘smirlarda o‘zingizni “xohlaganingizdek” tutish huquqining oiladan olinishi o‘z-o‘zidan vaziyatga, odatdagi me’yorlarga, kattalarning talablariga, keyin ularni qabul qilgan oiladan bo‘lgan o‘smirlarda – bunday xatti-harakatlarning himoya tabiatini namoyon qiladigan ushbu vaziyatga moslashish orqali o‘tadi.

Ijtimoiy yetim bolalarning aqliy va shaxsiy rivojlanishi aniq ekanligini ko‘rish mumkin. Ularning rivojlanishining barcha xususiyatlari bolaning yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Ularning eng ahamiyatlisi mehrga muhtojlik, bolani shartsiz qabul qiladigan va sevadigan yaqin kattalarning yo‘qligi, bu bolalarga jamiyatdan bo‘lgan nojo‘ya munosabatdir. Bularning barchasi tashqi dunyodan o‘zini himoya qiladigan tajovuzkor, ammo o‘ta zaif, xavfsiz shaxs shakllanishiga olib keladi va u bilan o‘zaro aloqada bo‘lmaydi.

Fikrimizcha, ijtimoiy yetimlarning ota-onasi tirik, ammo ota-onalik huquqidan mahrum bo‘lgan bolalar ekanligi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Bola biografiyasining bu fakti bilan bog‘liq pozitsiya ota-onalari uchun chuqur g‘azab yoki ayb hissiga tushadi, odatda hushini yo‘qotadi. Ishonamanki, bu holat bola shaxsining rivojlanishini yuqorida sanab o‘tilgan shart-sharoitlardan kam bo‘lmagan holda belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to‘plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas’ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O‘zMU, 2023. – 222 b.

2. “Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 21.11.2020-yildagi PQ-739-son .

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazrlar Mahkamasining “Etim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori 25.10.2021 - yil 656-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.

5. Осипова И.И. Предотвращение социального сиротства (отечественные и зарубежные практики) / Социальное сиротство в современной России: истоки и предотвращение, судьбы родителей детей-сирот. – М., 2010. – С.61- 77.

6. O‘sha joyda: URL: [https:// president.uz/uz/lists/view/4517](https://president.uz/uz/lists/view/4517)

7. <https://stat.uz/uz/> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

8. Ziyaeva X. O., B.J. Mingbayeva. ANALYSIS OF THE CONCEPT OF SOCIAL ORPHANHOOD AND THEORIES AIMED AT ITS STUDY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 13, Feb., 2023 204 | P a g e 204-207.

9. Ziyayeva Xolida, Maxsudova Azizaxon. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. Oilaviy munosabatlarning barqarorligi. B.102.